

**VATAN*****Odilova Muslima Mo'minjon qizi***

Vatan o'zi nima?

U haqida qancha gapirsak, go'yo so'zlar kamdek, jumlar ozdek. Vatan tug'ilib o'sgan go'sha, ota bobolarimiz xoki yotgan tuproq va biz ham vaqti kelib bag'rimizni berishimiz kerak bo'lgan zamindir. Vatan biz o'zimizga va ko'zimizga yaqin uyimiz, mahallamiz, o'zimizning o'ziga bek bo'lgan---o'zbek qora qosh, qora ko'z, mehmondo'st, xalqimizdir. Ona yurtimizning har bir qarich yeri, maktabimiz, uyimiz hovlisi, qishlog'imizning ko'chalari, shahrimizning qadimiy ziyoratgohlari-yu, osmono'par binolari ham Vatandır... Vatan ajdodlarimizdan avlodlarga ya'ni bizga qoldirilgan eng muqaddas, aziz merosdir. Vatanimizni taraqqiyoti va farovonligi uchun hissa qo'shish bizning asosiy va muhim vazifamizdir. Ajdodlarimiz yurt tinchligi va ozodligi uchun o'z jonidan ham voz kechgan bir paytda bizga ishonib topshirilgan - Ona zaminimiz yanada go'zal, ozod, obod, rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun nega harakat qilmasligimiz kerak?!

Onasi bor insonni hech ko'rganmisiz? U hayotning har qanday sinovlariga bardosh bera oladi. Chunki u onasidan kuch oladi, mehr oladi. Vatan ham Ona kabidir. Vatani bor inson ham har qanday qiyinchilikka chiday oladi, sinovlarga bardosh bera oladi. Bekorga aytmaymiz: Ona Vatan deb! Ona Vatanimiz, duog'oy xalqimiz bor ekan, hali yurtimiz har jabhada rivojlanishi uchun, kasbimiz, mehnatimiz orqali katta hissa qo'shamiz!

Ayni kunlarda-uchinchi renessans yoshlari-jadal rivojlanib borayotgan davrda ko'plab sohalarda o'z iste'dodi va iqtidorini ko'rsatmoqda. Bunga sabablardan biri Yangi O'zbekiston birinchi navbatda yoshlarga, ularning ta'limiga e'tibor qaratmoqda. Bulardan biri sifatida SAT imtihonidan maksimal bal - 1600 bal to'plagan buxorolik hamyurtimiz Parviz Tuxsanovdir. Joriy yilning 14-fevralida Shavkat Mirziyoyev bilan yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda Prezidentimiz shaxsan Parvizni bu muvaffaqiyat bilan tabrikladi:



- Ota-onangga, murabbiylaringga rahmat. Qanday baxtli onasiz, farzandni shunday voyaga yetkazganingiz uchun sizdan minnatdorman. Buxoroni Buxoroi sharif deyishadi. Shariflikka munosib farzand katta qilibsiz. Men sizdan juda minnatdorman.

Prezidentimizning shaxsan mana shunday tabriklashlari, ota-onalarga bunday minnatdorchilik bildirishlari har bir yoshni yanada olg'a intilishga, harakatdan to'xtamaslikka, ota-onamizga esa yurtga munosib farzand tarbiyalash uchun motivatsiya bo'ldi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz faqatgina ta'limga emas, balki sportga ham katta e'tibor qaratdilar. Davlatimiz tomonidan ommaviy sportni yanada yuksaltirish, professional sportni rivojlantirish va yangi sport turlarini ommalashtirish maqsadida qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda Diyora Keldiyorova va Asila Mirzayorovani aytib o'tmasak bo'lmaydi. Diyora Keldiyorova 2024-yil Parijda bo'lib o'tgan yozgi olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston tarixida ilk bor dzyudo kurashi bo'yicha Olimpiya chempioniga aylandi. Asila Mirzayorova 2024-yil Parij Paraolimpiya o'yinlarida uzunlikka sakrash bo'yicha 5.24 metr natija bilan, oltin medalni qo'lga kiritib, yangi Paraolimpiya rekordini o'rnatdi. Diyora ijtimoiy himoya milliy agentligida gender tengsizligi va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakil etib tayinlandi. Asila Mirzayorova esa ijtimoiy himoya milliy agentligida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus vakil lavozimiga tayinlandi. Bu insonlar nafaqat sportga balki, ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qaratib, yurt ravnaqi yo'lida katta hissa qo'shyaptilar. Sportchilarimizning bunday muvaffaqiyati muhtaram Prezidentimizning sportga bo'lgan e'tiborining mevasidir. Yurtboshimiz nafaqat ta'lim, sport, san'at balki, insoniyat, O'zbekiston rivojlanishi mumkin bo'lgan har qanday sohaga yaxshigina e'tibor qaratyaptilar.

Prezidentimizning, xalqimizning bergan ishonchlarini oqlashga, shu jumladan men bo'lajak shifokor sifatida xalqimga, yurtimga sidqidildan xizmat qilishga, uning tuprog'ini muqaddas bilib, har qanday holatda ham uni asrashga va'da beraman!